



Sirdaryo viloyatida

kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 – yil yanvar – sentabr

2020 – yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **72,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **20,4** birlikni tashkil qildi.

2020 – yilning yanvar – sentabrida **2395** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **117,9** foizga ko'p.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 940 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 522 ta, sanoatda 444 ta, qurilishda 155 ta, yashash va ovqatlanishda 107 ta, tashish va saqlashda 41 ta tashkil etilgan.

2020 – yil yanvar – sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Savdo
39,2 %



Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi
21,8 %



Sanoat
18,5 %



Qurilish
6,5 %



Yashash va
ovqatlanish
4,5 %



Tashish va saqlash
1,7 %

Yanvar – sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

| | O'lchov birligi | 2019 – y. | 2020 – y. | (+;-) |
|---|-----------------|-----------|-----------|-------|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni | birlikda | 10052 | 12914 | 2862 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni | birlikda | 2031 | 2395 | 364 |
| Kichik tadbirkorlikning ulushlari: | | | | |
| YaHM | % | 73,1 | 72,6 | -0,5 |
| Sanoat | % | 40,8 | 40,3 | -0,5 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | % | 98,7 | 98,6 | -0,1 |
| Investitsiya | % | 53,2 | 48,4 | -4,8 |
| Qurilish | % | 96,9 | 98,2 | 1,3 |
| Savdo | % | 88,3 | 83,7 | -4,6 |
| Xizmatlar | % | 59,8 | 55,6 | -4,2 |
| Yuk tashish | % | 96,3 | 96,2 | -0,1 |
| Yuk aylanmasi | % | 96,0 | 96,5 | 0,5 |
| Yo'lovchi tashish | % | 96,8 | 96,6 | -0,2 |
| Yo'lovchi aylanmasi | % | 98,4 | 97,9 | -0,5 |
| Eksport | % | 77,6 | 76,3 | -1,3 |
| Import | % | 75,0 | 62,4 | -12,6 |



2020 – yilning yanvar – sentabrda kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da



2020 – yilning yanvar – sentabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Guliston shahrida – 499 ta, Sirdaryo tumanida – 275 ta, Mirzaobod tumanida – 244 ta, Boyovut tumanida – 227 ta, Oqoltin tumanida – 224 ta va Sayxunobod


tumanida – 207 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko‘rsatkich Shirin shahrida – 79 tani tashkil etgan.

Tuman va shaharlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

| | 2019 – yil yanvar – sentabr | 2020 – yil yanvar – sentabr | (+;-) |
|--------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|------------|
| Sirdaryo viloyati | 2031 | 2395 | 364 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Guliston | 518 | 499 | -19 |
| Shirin | 40 | 79 | 39 |
| Yangiyer | 157 | 135 | -22 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oqoltin | 127 | 224 | 97 |
| Boyovut | 161 | 227 | 66 |
| Sayxunobod | 134 | 207 | 73 |
| Guliston | 156 | 161 | 5 |
| Sardoba | 130 | 188 | 58 |
| Mirzaobod | 157 | 244 | 87 |
| Sirdaryo | 327 | 275 | -52 |
| Xovos | 124 | 156 | 32 |



2020 – yil yanvar – sentabr holatiga ko‘ra yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo‘yicha ulushi, % da




2020 - yilning yanvar - sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Guliston shahri - 20,9 %, Sirdaryo tumani - 11,6 %, Mirzaobod tumani - 10,2 %, Boyovut tumani - 9,5 %, Oqoltin tumani - 9,4 %, Sayxunobod tumani 8,6 %, Sardoba tumani 7,8 %, Guliston tumani - 6,7 %, Xovos tumani - 6,5 %, Yangiyer shahri - 5,6 %, Shirin shahri - 3,3 % ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

| | 2019 - yil yanvar - sentabr | 2020 - yil yanvar - sentabr | (+;-) |
|--|--------------------------------|--------------------------------|--------|
| Jami | 2031 | 2395 | 364 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 256 | 522 | 266 |
| Sanoat | 445 | 444 | -1 |
| Qurilish | 263 | 155 | -108 |
| Savdo | 687 | 940 | 253 |
| Tashish va saqlash | 38 | 41 | 3 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 198 | 107 | -91 |
| Axborot va aloqa | 21 | 27 | 6 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 18 | 28 | 10 |
| Boshqa faoliyat turlari | 105 | 131 | 26 |

Ma'lumot uchun: 2020 – yilning yanvar – sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

| | 2019 - yil yanvar - sentabr | 2020 - yil yanvar - sentabr | Farqi (+;-) |
|-------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|----------------|
| Guliston sh. | 518 | 499 | -19 |
| Sirdaryo tumani | 327 | 275 | -52 |
| Mirzaobod tumani | 157 | 244 | 87 |
| Boyovut tumani | 161 | 227 | 66 |
| Oqoltin tumani | 127 | 224 | 97 |
| Sayxunobod tumani | 134 | 207 | 73 |

2020 – yilning yanvar – sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Guliston shahrida – 499 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - sentabr holatiga ko'ra*



2020 – yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman, shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Guliston shahrida 41,4 birlik, Sayxunobod tumanida 21,8 birlik, Yangiyer shahrida 21,3 birlik, Guliston tumanida 20,7 birlik, Oqoltin tumanida 20,4 birlik, Mirzaobod tumanida 20,2 birlik, Sirdaryo tumanida 18,7 birlikni tashkil etgan. Boyovut tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 12,3 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020 – yilning yanvar – sentabrda tuman va shaharlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)




2020 – yilning yanvar – sentabrda tuman va shaharlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



2020 – yilning yanvar – sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p ko‘rsatkich Guliston shahrida 41,4 birlik, Sayxunobod tumanida 21,8 birlik, Yangiyer shahrida 21,3 birlik, Guliston tumanida 20,7 birlik, Oqoltin tumanida 20,4 birlik, Mirzaobod tumanida 20,2 birlik, Sirdaryo tumanida esa 18,7 birlikni tashkil etdi.

* *Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



Bundan ko'rinib turibdiki, Guliston shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu shaharda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Boyovut tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxonalar soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish Dinamikasi, yanvar - sentabr holatiga ko'ra, % da


2020 – yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 72,6 % ni tashkil qildi. (2019 – yilning yanvar – sentabrida 73,1 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.





Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan, % da)



2020 – yilning yanvar – sentabrda kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

| | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar | Investitsiya |
|--------------------------|-------------|-------------|-------------|--------------|
| Sirdaryo viloyati | 40,3 | 98,2 | 55,6 | 48,4 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Guliston | 81,2 | 98,4 | 27,4 | 59,8 |
| Shirin | 1,0 | 99,6 | 98,6 | 7,5 |
| Yangiyer | 62,3 | 100,0 | 98,7 | 90,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Oqoltin | 48,4 | 100,0 | 95,7 | 34,0 |
| Boyovut | 60,7 | 99,4 | 91,8 | 61,0 |
| Sayxunobod | 58,7 | 99,5 | 78,1 | 94,0 |
| Guliston | 59,5 | 99,6 | 97,6 | 93,8 |
| Sardoba | 81,7 | 99,0 | 94,6 | 30,2 |
| Mirzaobod | 66,2 | 87,5 | 93,7 | 38,0 |
| Sirdaryo | 68,1 | 99,8 | 96,3 | 52,4 |
| Xovos | 74,1 | 99,5 | 97,3 | 76,8 |

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Guliston sh. (81,2 %),
Sardoba (81,7 %),
Xovos (74,1 %) va
Sirdaryo (68,1 %) tumanlarida.

Qurilishda-

Yangiyer sh. (100,0 %),
Oqoltin (100,0 %),
Sirdaryo (99,8 %),
Shirin sh. (99,6 %) va Guliston (99,6 %) tumanlarida.

Xizmatlarda-


Yangiyer sh. (98,7 %),
Shirin sh. (98,6 %),
Guliston (97,6 %),
Xovos (97,3 %)
Sirdaryo (96,3 %) va
Oqoltin (95,7 %) tumanlarida.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 - yilning yanvar - sentabrida






Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – sentabr oylarida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushini Oqoltin tumanida - 100,0 %, Sayxunobod tumanida - 100,0 %, Xovos tumanida - 99,9 %, Guliston tumani - 99,9 %, Yangiyer shahrida - 99,9 %, Sardoba tumanida - 99,5 %, Sirdaryo tumanida - 67,4 %, Guliston shahrida - 64,8 %, Boyovut tumanida - 62,3 % ni, eng past ko‘rsatkich Mirzaobod tumanida - 44,8 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – sentabr oylarida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Xovos tumanida – 100,0 %, Yangiyer shahrida – 100,0 %, Oqoltin tumanida – 100,0 %, Sayxunobod tumanida – 100,0 %, Guliston tumanida – 99,9 %, Sardoba tumanida – 99,8 %, Guliston shahrida – 94,6 %, Mirzaobod tumanida – 76,1 %, Boyovut tumanida – 66,6 %, Sirdaryo tumanida – 42,0 %. Eng past ko‘rsatkich Shirin shahrida – 15,2 % ni tashkil etdi.




2020 – yilning yanvar – sentabrida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumanida (655,7 mlrd. so‘m), Guliston shahrida (503,0 mlrd. so‘m), Yangiyer shahrida (254,1 mlrd. so‘m), Mirzaobod tumanida (169,7 mlrd. so‘m), Boyovut tumanida (145,5 mlrd. so‘m), Sayxunobod tumanida (138,4 mlrd. so‘m), Xovos tumanida (109,1 mlrd. so‘m) va Sardoba (74,4 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shirin shahrida (22,9 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.






2020 – yil yanvar – sentabr holatiga ko‘ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo‘yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sardoba tumani (81,7 %), Guliston shahri (81,2 %), Xovos tumani (74,1 %), Sirdaryo tumani (68,1 %), Mirzaobod tumani (66,2 %), Yangiyer shahri (62,3 %), Boyovut tumani (60,7 %), Guliston (59,5 %), Sayxunobod tumani (58,7 %) va Oqoltin (48,4 %) tumanlari tashkil etdi. Shirin shahrida (1,0 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.




2020 – yilning yanvar – sentabrda tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘ati



Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri 624,6 mlrd. so‘m (2019 yilning yanvar – sentabriga nisbatan o‘shish sur‘ati 93,6 %), Sirdaryo tumani 552,1 mlrd. so‘m (96,1 %), Yangiyer shahrida 190,8 mlrd. so‘m (91,2 %), Oqoltin tumani 163,8 mlrd. so‘m (90,7 %), Mirzaobod tumani 158,0 mlrd. so‘m (81,0 %), Boyovut 107,1 mlrd. so‘m (88,9 %) va Sardoba 94,6 mlrd. so‘m (88,8 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.



2020 – yilning yanvar – sentabrda tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘shish sur‘ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahri 558,7 mlrd. so‘m (2019 yilning yanvar – sentabriga nisbatan o‘shish sur‘ati 109,9 %), Sirdaryo tumani 190,2 mlrd. so‘m (98,2 %), Yangiyer shahri 142,5 mlrd. so‘m (101,7 %), Boyovut tumani 122,1 mlrd. so‘m (94,1 %), Mirzaobod tumani 119,8 mlrd. so‘m (83,5 %) hamda Oqoltin tumanida 112,2 mlrd. so‘m (103,3 %) qayd etildi.





2020 – yilning yanvar – sentabrida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘shish sur‘ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha eng ko‘p xizmatlar hajmi Guliston shahri 367,1 mlrd. so‘m (2019 yilning yanvar – sentabriga nisbatan o‘shish sur‘ati 98,0 %), Sirdaryo tumani 235,6 mlrd. so‘m (98,4 %), Yangiyer shahri 145,8 mlrd. so‘m (99,3 %), Mirzaobod tumani 95,6 mlrd. so‘m (99,4 %), Xovos tumani 80,3 mlrd. so‘m (98,8 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 – yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **428** ta respondentlar ishtirok etdi.

2020 – yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi* , % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 9,1 % (39 ta), qurilishda – 12,1 % (52 ta), sanoatda – 15,0 % (64 ta), xizmatlar sohasida – 23,4 % (100 ta), savdoda – 40,4 % (173 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



2020 – yil III chorak bo‘yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo‘lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 – yil III chorak bo‘yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo‘lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 – yilning III choragida oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat xizmatlar sohasida 21,8 punktga, sanoatda 15,3 punktga, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 13,2 punktga, savdoda 11,4 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qurilish korxonalaridan tashqari qulay deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilish korxonalarida 9,0 punktga, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 7,5 punktga, savdoda 6,1 punktga, xizmatlar sohasida 1,0 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 – 2020 – yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 – yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi savdoda 7,2 punktga, xizmatlar sohasida 6,9 punktga kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, xizmatlar sohasida 9,6 punktga, savdoda 7,6 punktga, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4,1 punktga, sanoat sohasida 3,0 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarining 2019 – 2020 – yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020 – yilning III choragi yakunlariga ko‘ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 75 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 11 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 14,7 % i), qurilish – 4 ta (5,3 % i), savdo – 35 ta (46,7 % i), xizmatlar – 10 ta (13,3 % i), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 15 ta (20,0 % i).

2020 – yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da






2020 – yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 – yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020 – yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi va savdo korxonalaridan tashqari qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha ko'payishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan qurilish korxonalarida 32,1 punktga, sanoat sohasida 30,3 punktga, savdoda 6,8 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushining kamayishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda savdoda 25,7 punktga, qurilish sohasida 25,0 punktga, sanoatda 18,1 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



2019 – 2020 – yillar III chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020 – yilning III choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni xizmatlar sohasidagi korxonalaridan tashqari yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 60,0 punktga, qurilishda 35,7 punktga, savdoda 23,7 punktga, sanoat sohasida 12,9 punktga ko'paydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi savdo korxonalarida 14,3 punktga ko'paydi.



2019 – 2020 – yil III choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

